ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti




13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№7(1)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 196 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS

# MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari ... 10
**Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi**

Talabalarning xulqidagi deviatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ... 16
**Ergashev Jo'rabek Xalilovich**

Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari ... 19
**Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi**

Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari ... 24
**Jonbo'tayeva Maxarramxon**

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni ... 27
**Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna**

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish ... 31
**Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi**

Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish ... 35
**Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li**

O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ... 39
**Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna**

Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri... 43
**Rahimova Nazokatxon Kasimdjonovna**

Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach ... 49
**Alibekova Mahzuna**

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54
**Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich**

Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi ... 59
**Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi**

Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish ... 64
**Ruzmetova D. A.**

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari ... 68
**Saydanova Dilafruz Sadirdinovna**

Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish ... 75
**Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich**

Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners ... 79
**Akhmatova Munisa Orif qizi**

Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish ... 86
**Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Olloberganqizi**

Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari ... 90
**Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna**

Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies ... 94
**Tursunalieva Nazokat Tokhir qizi**

Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari ..... 102
Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadrriddinovich

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili ..... 110
Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari ..... 115
Go'zal Qurbonova

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari ..... 121
Muratova Munavvar O'rol qizi

Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari ..... 126
Usmonova Zamira Jaxongirovna

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi ..... 130
Axmedova Shaxlo Shoxob qizi

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida) ..... 133
Panayeva Maloxat Muminovna

Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей ..... 136
Багдасарова Диана Левоновна

Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся ..... 141
Зарымова Турсынай Бердибай кызы

A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry ..... 145
Ruziyeva Kamola Akhtamovna

Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida) ..... 150
Abdullayev O'tkir Sadullayevich

Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari ..... 154
Avezov Davronbek Soburovich

O'zbek xalq pedagogikasi an'analarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi ..... 158
Erkaboyeva Nigora Shermatovna

Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari ..... 163
Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna

Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari ..... 168
Nazarov Alisher Narimanovich

Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari..... 171
Qodirov Jahongir Neymat o'g'li

Kutubxona muhitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari..... 176
Qosimova Xolida Nabiyevna

Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish ..... 179
Raxmatullayeva Durdona Fazliddin qizi

Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling..... 182
Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababyan I. R.

O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari ..... 187
Toshboltayeva Nodira

Роль интерактивного лингвокультурологи-ческого пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений..... 191
Рустамова Ферузахон Махмуджановна

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

# BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA ESTRADA SAN'ATINI O'QITISH MASALALARI (GITARA CHOLG'USI MISOLIDA)

Abdullayev O'tkir Sadullayevich
O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti
"Estrada cholg'ularida ijrochilik va dirijyorlik" kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitishning pedagogik va metodik jihatlari gitara cholg'usi misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, gitara cholg'usining estrada ijrochiligidagi o'rni, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** estrada san'ati, gitara, musiqa ta'limi, ijrochilik mahorati, pedagogika, innovatsion texnologiyalar, repertuar, sahna madaniyati.

**Abstract:** This article analyzes the pedagogical and methodological aspects of teaching pop art in children's music and art schools using the example of the guitar. It also discusses the role of the guitar in pop performance, its importance in developing students' creative abilities, and the use of modern pedagogical technologies and innovative methods.

**Key words:** pop art, guitar, music education, performance skills, pedagogy, innovative technologies, repertoire, stage culture.

**Аннотация:** В данной статье анализируются педагогические и методические аспекты преподавания поп-арта в детских музыкальных и художественных школах на примере гитары. Также рассматривается роль гитары в поп-исполнении, её важность в развитии творческих способностей учащихся, а также использование современных педагогических технологий и инновационных методов.

**Ключевые слова:** поп-арт, гитара, музыкальное образование, исполнительские навыки, педагогика, инновационные технологии, репертуар, сценическая культура.

## KIRISH

Bugungi kunda bolalar musiqa va san'at maktablarida o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda ularni milliy va jahon musiqa madaniyati bilan tanishtirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, estrada san'atining yoshlar orasida keng ommalashib borayotgani ushbu yo'nalishni zamonaviy metodik yondashuvlar asosida o'qitish zaruratini kuchaytirmoqda. Estrada ijrochiligida gitara cholg'usi o'zining keng ijroviy imkoniyatlari, ritmik jo'rnavozlik, yakkanavozlik, ansambl ijrosi va improvizatsiya jarayonidagi qulayligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida gitara cholg'usini o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijrochilik mahorati, musiqiy tafakkuri, sahna madaniyati va ijodiy mustaqilligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, milliy musiqa an'analarini estrada uslubi bilan uyg'unlashtirish, repertuar tanlashda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda raqamli vositalardan samarali foydalanish ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur masalalar bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini gitara cholg'usi orqali o'qitish metodikasini takomillashtirishni dolzarb pedagogik muammo sifatida o'rganishni taqozo etadi [1].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur maqolada foydalanilgan adabiyotlar bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini gitara cholg'usi orqali o'qitishning nazariy, metodik va amaliy asoslarini yoritishga xizmat qiladi.

Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyatini rivojlantirish, madaniyat va san'at sohalarini qo'llab-quvvatlash, ta'lim jarayonida zamonaviy yonda-

shuvlarni keng joriy etish masalalari muhim strategik yo'nalish sifatida talqin etilgan. Ushbu manba musiqa ta'limining jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini asoslashda metodologik ahamiyatga ega.

Andrés Segovianing "My Book of the Guitar" asari gitara cholg'usining ijrochilik imkoniyatlari, texnik xususiyatlari va badiiy ifoda vositalarini o'rganishda muhim manba bo'lib, unda gitara san'atining tarixiy taraqqiyoti va ijro madaniyati haqida qimmatli fikrlar berilgan [2].

O.A. Apraksinaning "Metodika muzykalnogo obucheniya" asarida musiqa ta'limini tashkil etishning umumiy pedagogik tamoyillari, o'quvchilarda musiqiy qobiliyatni rivojlantirish usullari hamda dars jarayonining metodik asoslari yoritilgan.

N. To'ranazarovning "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari" qo'llanmasi esa musiqa ta'limida repertuar tanlash, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, amaliy ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish masalalarini o'rganishda muhim ilmiy-uslubiy manba hisoblanadi. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, estrada san'atini gitara cholg'usi asosida o'qitishda nazariy bilim, texnik tayyorgarlik, repertuar tanlash, sahna madaniyati va innovatsion pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biridir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini gitara cholg'usi misolida o'qitishning pedagogik va metodik xususiyatlarini o'rganish maqsadida ilmiy bilishning nazariy hamda amaliy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini musiqa pedagogikasi, musiqa ta'limi metodikasi, estrada ijrochiligi va gitara san'ati bo'yicha mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, kuzatish, pedagogik tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ilmiy va uslubiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar tahlil qilinib, bolalar musiqa va san'at maktablarida gitara cholg'usini o'qitishning mavjud holati hamda dolzarb muammolari aniqlandi.

Shuningdek, estrada san'atini o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar, raqamli ta'lim vositalari hamda gitara ijrochiligini o'rgatish metodlari qiyosiy jihatdan baholandi. Olingan natijalar asosida gitara cholg'usi orqali estrada san'atini o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda bolalar musiqa va san'at maktablarida yosh avlodning estetik didini shakllantirish, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda milliy va jahon musiqa madaniyatiga qiziqishini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, estrada san'atining yoshlar orasida keng ommalashib borayotgani ushbu yo'nalishni professional darajada o'qitish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan gitara cholg'usi estrada ijrochiligida eng ommabop va universal cholg'ulardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda gitara ijrochiligiga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Biroq mavjud ta'lim tizimida ayrim metodik va tashkiliy muammolar kuzatilmoqda. Xususan, milliy kuy va maqom elementlarini gitara repertuariga moslashtirish mexanizmlarining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarning ta'lim jarayonida samarali qo'llanilmayotgani estrada ta'limi rivojiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Gitara cholg'usi nafaqat yakkanavoz ijrochilikda, balki ansambl va orkestr tarkibida ham keng qo'llaniladi. Shu sababli bolalar musiqa va san'at maktablarida gitara orqali estrada san'atini o'qitish metodikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb pedagogik masalalaridan biri hisoblanadi [3].

Estrada san'ati yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, ularning ijodiy erkinligini shakllantirish hamda zamonaviy musiqiy yo'nalishlarni anglashiga xizmat qiladi. Estrada ijrochiligi orqali o'quvchilar ritm va tempni his qilish, improvizatsiya qilish, sahnada erkin harakatlanish va jamoa bilan ishlash kabi muhim ko'nikmalarni egallaydilar. Mazkur jarayon o'quvchilarning nafaqat musiqiy qobiliyatlarini, balki psixologik va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, sahnaviy chiqishlar o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonch, tinglovchi bilan muloqot qilish madaniyati va ijodiy mustaqillikni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlarning ma'naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgani musiqa ta'limining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini yanada oshiradi [1].

Gitara torli tirnama cholg'ular oilasiga mansub bo'lib, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Dastlabki gitara shakllari qadimgi Yunoniston va Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik Ispaniyada mukammallashgan. XVIII asrdan boshlab olti torli klassik gitara shakllandi, XX asrga kelib esa elektro gitara va bas gitara kabi zamonaviy turlari yuzaga keldi. Mashhur gitarachilar Andrés Segovia, Julian Bream,

Paco de Lucía hamda Tommy Emmanuel kabi ijrochilar gitara san'atining texnik va badiiy imkoniyatlarini kengaytirishga katta hissa qo'shganlar [2].

Gitara estrada musiqasida ko'p qirrali cholg'u sifatida ritmik jo'rnavozlik, yakkaxon ijrochilik, improvizatsiya va ansambl ijrosi kabi funksiyalarni bajaradi.

Gitara cholg'usini o'qitish metodikasi: Bolalar musiqa va san'at maktablarida gitara cholg'usini o'qitishda bir qator metodik jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchining gitara bilan to'g'ri ishlashi ijro sifati va texnik imkoniyatlariga bevosita ta'sir qiladi. Noto'g'ri holat tez charchash, mushaklar zo'riqishi hamda texnik qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Texnik mashqlar: Gamma, arpedjio va ritmik mashqlar barmoq harakatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur mashqlar o'quvchilarda:

- tezkorlik;
- aniqlik;
- ritmik barqarorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Gitara cholg'usini o'qitishda repertuar tanlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang'ich bosqichda o'quvchilarning yoshi, qobiliyati va tayyorgarlik darajasiga mos kuy va asarlarni tanlash kerak bo'ladi. Sodda ritmga ega, eslab qolish oson va ijro etilishi qiyin bo'lmagan kuylar o'quvchilarning gitara cholg'usiga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Repertuarni asta-sekin murakkablashtirib borish o'quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Dastlab oddiy xalq kuylarining yengil variantlari, bolalar qo'shiqlari va sodda estrada asarlari o'rgatiladi. Keyinchalik esa zamonaviy estrada kuy-qo'shiqlari, milliy kuylarning estrada uslubidagi ishlanmalari hamda mashhur gitarachilarning asarlari o'rgatiladi. Repertuar tanlashda asarning faqat texnik jihati emas, balki uning tarbiyaviy va badiiy ahamiyati ham hisobga olinadi. Bu esa o'quvchilarning musiqiy didini rivojlantirish, sahna madaniyatini shakllantirish va mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi davrda estrada san'atini o'qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi o'quvchilarning ijodiy faolligini kuchaytirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijrochilik mahoratini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, audio va video materiallardan foydalanish orqali o'quvchilar mashhur ijrochilarning sahna madaniyati, texnik uslublari va ijroviy talqinlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning musiqiy tafakkuri, eshituv qobiliyati va badiiy-estetik dunyoqarashining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Interaktiv mashg'ulotlarning tashkil etilishi ta'lim jarayonida o'quvchi va pedagog o'rtasidagi ijodiy hamkorlikni mustahkamlaydi. Ayniqsa, guruhli mashqlar, musiqiy seminarlar, master-klasslar va amaliy ijro mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning muloqot ko'nikmalari, jamoa bilan ishlash qobiliyati hamda sahnaviy madaniyati rivojlanadi. Maxsus gitara dasturlari, metronom, audioyozuv va videodars platformalari orqali o'quvchilar darsdan tashqari vaqtda ham muntazam mashq olib borishlari mumkin. Bu esa uzluksiz ta'lim tamoyilini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Estrada san'atini o'qitishda sahna chiqishlari, konsert dasturlari, ijodiy tanlov va festivallarni tashkil etish ham pedagogik jihatdan muhim vositalardan biri hisoblanadi. Bunday amaliy faoliyat o'quvchilarning ijrochilik tajribasini boyitadi, ularda sahna madaniyati, tinglovchi bilan muloqot qilish ko'nikmasi hamda kasbiy ishonchni shakllantiradi [4].

Mavjud muammolar va ularning yechimlari: Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada yo'nalishini o'qitish jarayonida turli metodik, amaliy va pedagogik muammolar uchramoqda. Ushbu muammolar ta'lim sifati hamda o'quvchilarning ijodiy salohiyatini to'laqonli rivojlantirish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, estrada san'atiga oid zamonaviy metodik qo'llanmalar, ilmiy-uslubiy adabiyotlar va maxsus o'quv dasturlarining yetarli emasligi pedagogik jarayon samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mavjud metodik manbalarning aksariyati an'anaviy musiqiy ta'limga yo'naltirilgan bo'lib, estrada ijrochiligiga xos bo'lgan improvizatsiya, sahna madaniyati va zamonaviy texnik usullarni to'liq qamrab olmaydi. Yana bir muhim muammo o'quv repertuarining yetarli darajada boy va tizimli shakllantirilmaganligidir. Ayrim repertuarlarning o'quvchilarning yoshi va individual imkoniyatlariga mos kelmasligi, milliy musiqa elementlarining kam qo'llanishi hamda zamonaviy estrada janrlarining yetarli darajada qamrab olinmaganligi o'quvchilarning ijodiy qiziqishini pasaytirishi mumkin.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida:

- gitara bo'yicha milliy o'quv dasturlarini ishlab chiqish;
- pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;
- xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish.

Shuningdek, zamonaviy musiqa asboblari, elektro gitara jihozlari, ovoz kuchaytirgich uskunalari va multimedia vositalari bilan ta'minlash o'quv jarayonining amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini gitara cholg'usi orqali o'qitish yoshlarning musiqiy dunyoqarashi, estetik tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Gitara cholg'usi o'quvchilarda ijrochilik mahorati, ritm hissi, sahna madaniyati va mustaqil ijod qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda milliy musiqa an'analarini uyg'unlashtirish estrada ta'limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada yo'nalishini rivojlantirish, metodik bazani takomillashtirish va malakali pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini gitara cholg'usi orqali o'qitish o'quvchilarning musiqiy tafakkuri, estetik didi, ijodiy faolligi va ijrochilik mahoratini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Gitara cholg'usi o'zining keng ijroviy imkoniyatlari, yakkanavozlik, jo'rnavozlik, ansambl ijrosi va improvizatsiya jarayonidagi qulayligi bilan estrada ta'limida samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur cholg'u orqali o'quvchilarda ritmni his qilish, sahnada erkin harakatlanish, musiqiy obrazni ifodalash, jamoa bilan ishlash va tinglovchi bilan muloqot qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, gitara cholg'usini o'qitishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyati va ijrochilik tayyorgarligini hisobga olgan holda repertuar tanlash, texnik mashqlarni bosqichma-bosqich tashkil etish hamda nazariy bilimlarni amaliy ijro bilan uyg'unlashtirish zarur. Ayniqsa, milliy kuy va maqom elementlarini estrada uslubiga moslashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, audio-video materiallar, interaktiv mashg'ulotlar va raqamli platformalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, estrada yo'nalishi bo'yicha metodik qo'llanmalar, milliy o'quv dasturlari va zamonaviy repertuar bazasini boyitish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini gitara cholg'usi asosida o'qitish nafaqat o'quvchilarning ijrochilik mahoratini rivojlantiradi, balki ularning ijodiy mustaqilligi, sahna madaniyati, badiiy-estetik dunyoqarashi va kasbiy qiziqishini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli gitara ta'limi metodikasini takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, zamonaviy texnik vositalardan foydalanish va milliy musiqa an'analarini estrada ijrochiligi bilan uyg'unlashtirish musiqa ta'limi sifatini yanada yuksaltirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**
1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Andrés Segovia. My Book of the Guitar. - New York: Dover Publications, 2005.
3. Апраксина О.А. Методика музыкального обучения. - Москва, 1978.
4. To'ranazarov N. Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari. - Termiz, 2006.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №7(1)**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.